

Musiqaning kuz ranglari



Kuz – juda chiroyli va xushmanzara fasl. U sariq, qizg'ish, oltin ranglarni yaxshi ko'radi. Avvaliga u rang-barang, serhasham va iliq, keyin esa yomg'irli va sovuq kunlarni hadya qiladi. Kuz fasli **yomg'ir shovqini**, **barglarning shitirlashi** va **shamolning guvullashi** kabi betakror tovushlarga to'la.



- Kuz qanday fasl? Ushbu mavsum haqida nimalarni bilasiz?
- Rassom kuz haqida so'zlab berishi uchun unga nimalar kerak?
- Kompozitorga-chi?
- Shoir nimalar yordamida kuzni tasvirlaydi?
- Agar shoir, kompozitor va rassom birgalikda kuzni tasvirlashga kirishsalar, nima hosil bo'ladi?

Frederik Shopén – polshalik taniqli kompozitor va pianinchi. U 1810-yilda Polshada tug'ilgan. 7 yoshidayoq o'z musiqasini yoza boshlagan va fortepianoda chiroyli ijrosi bilan hammani lol qoldirgan. Uning musiqasi juda nafis va go'zal, ammo so'zsiz hikoyalarni so'zlayotgandek biroz g'amgin.



Musiqani tinglab, kuz haqida kichik ertak tuzing.



9

Kuz kayfiyati. Vals
Frederik Shopén

António Vivaldi – italiyalik kompozitor va skripkachi. U 1678-yilda Venetsiyada tug'ilgan. Antonio bolaligidayoq musiqani sevgan, otasi esa unga skripka chalishni o'rgatgan. U yoshligidan boshlab o'z kuylarini yozgan va kompozitor bo'lishni orzu qilgan. Uning eng mashhur asari – “Yil fasllari” bo'lib, unda kompozitor har bir faslning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalab bergan.



10

Kuz

Antonio Vivaldi



- Buyuk kompozitorlarning kuz haqidagi asarlarini tinglang.
- Nima deb o'ylaysiz, ushbu musiqani tinglayotib, kuzning qanday ranglarini chizish mumkin? Har bir kuyda qanday farqlarni eshita olyapsiz?
- Agar ushbu musiqa rasm bo'lganida, nimani ko'rgan bo'lardik? Musiqada qanday daraxtlar, jonivorlar, osmon yoki kuz manzaralari (barglarning shitirlashi, yomg'ir tovushi) yangraganligini tasavvur qiling.



F. Shopen va A. Vivaldi asarlarini tinglab, tasavvuringizdagi kuz manzarasini chizing, bunda bo'yoqlar yoki rangli qalamlardan foydalaning.

